TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2026-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
3-bosqich Boshlang'ich ta'lim yo‘nalishi talabalariga 5-semestr uchun
« Ona tili o‘qitish metodikasi » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og'zaki

Mavzu raqami	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi
1	Ona tili o'qitish metodikasining tadqiqot predmeti va asosiy vazifalarini bayon qiling. (Tayanch tushuncha: ta'lim jarayoni, til va nutqiy ko'nikmalar, pedagogik fan)	Ona tili o'qitish metodikasining fan sifatida boshqa fanlar (tilshunoslik, pedagogika, psixologiya) bilan aloqadorligini mulohaza qilib bering.	Ona tili o'qitish metodikasining asosiy kategoriyalari (maqsad, mazmun, tamoyillar, metod va vositalar) tizimini tushuntiring.	Metodik tizim kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi va ularning o'quvchilarda savodxonlikni rivojlantirishdagi funksional rolini tahlil qiling.	Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida nutqiy madaniyat va mantiqiy fikrlashni shakllantirish bo'yicha pedagogik yondashuvingizni asoslab beruvchi xulosa yazing.
1	Ona tili o'qitish metodikasining asosiy kategoriyalari deganda nimani tushunasiz? (Tayanch tushuncha: ta'lim maqsadi, mazmun, metod, vosita)	Nima uchun ona tili o'qitish metodikasi amaliy va nazariy pedagogik fan hisoblanadi? Fikringizni asoslang.	Ona tili ta'limida baholash va natijalarni nazorat qilish kategoriyasining metodik mohiyatini yoritib bering.	Zamonaviy boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi rivojlanishining asosiy konsepsiyalari va tendensiyalarini tahlil qiling.	Muayyan dars mavzusida metodik tizimning barcha kategoriyalarini uzviy bog'lagan holda dars ishlanmasi modelini shakllantiring va xulosalang.
1	O'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishning boshlang'ich bosqichi qoidalari haqida ma'lumot bering.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tilga oid tahliliy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik ahamiyatini mulohaza qiling.	Ona tili o'qitish vositalarining (darslik, tarqatma material, raqamli vositalar) metodik tasnifini tushuntiring.	Ona tili ta'limida shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyalarining o'zaro mutanosibligini izohlang.	Savodxonlik va nutqiy madaniyatni oshirishda uchraydigan metodik muammolarni aniqlang va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif bildiring.
2	O'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tarixining asosiy bosqichlarini ko'rsatib bering. (Tayanch tushuncha: XX asr boshlari, jadidchilik, usuli savtiya)	Jadid maktablarida ona tili va savod o'rgatish usullarining (Usuli jadid) an'anaviy maktablardan farqli jihatlarini mulohaza qiling.	XX asrning 20-30-yillarida yaratilgan ilk darsliklar va dasturlarning metodik xususiyatlarini tushuntirib bering.	O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng ona tili ta'limida yuz bergan konseptual o'zgarishlar va davlat tili maqomining metodikaga ta'sirini tahlil qiling.	O'zbek tili ta'limi tarixidagi ilg'or usullarni zamonaviy boshlang'ich sinf darslarida qo'llash imkoniyatlarini baholang va xulosa chiqaring.
2	Jadid ma'rifatparvarlari (A.Avloniy, M.Behbudiy, M.Qori) tomonidan yaratilgan alifbe va ona tili kitoblari haqida ma'lumot bering.	O'zbek tilini o'qitish metodikasining tilshunoslik va psixologiya yutuqlariga tayanib rivojlanish jarayonini mulohaza qiling.	O'zbek tili metodikasi fanining shakllanishida munosib hissa qo'shgan metodist olimlar va ularning ilmiy qarashlarini bayon eting.	Ona tili ta'limi dasturlarining tarixiy evolyutsiyasi va undagi nutqiy-kommunikativ yo'nalishning kuchayib borish tendensiyasini tahlil qiling.	Tarixiy va zamonaviy ona tili darsliklarini qiyosiy tahlil qilib, kelajak boshlang'ich sinf darsliklari uchun innovatsion taklif bering.
2	XX asr ikkinchi yarmida boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.	Nima uchun mustaqillik yillarida ona tili faniga 'til qoidalari'dan ko'ra 'nutqiy faoliyat' sifatida yondashuv ustuvor bo'ldi?	Ona tili o'qitish metodikasining mustaqillik davridagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari va tamoyillarini izohlang.	Milliy va xalqaro tajribalar integratsiyasi asosida o'zbek tili ta'limini takomillashtirish konsepsiyalarini yoritib bering.	Ona tili o'qitish tarixini o'rganish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida qanday kasbiy mahorat va dunyoqarashni shakllantirishi haqida mulohaza yuting.
3	Maktabda ona tili predmeti mazmunini moddiylashtirish darajalari deganda nimani tushunasiz? (Tayanch tushuncha: bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, bosqichlar)	O'quvchilarning til birliklarini tahlil qilish va ularni nutqiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligini mulohaza qiling.	Ona tili mazmunini moddiylashtirish bosqichlari (qoidani anglash, mashqlarda mustahkamlash, erkin matn yaratish) tartibini tushuntiring.	O'quvchida qoida va tushunchalarni yod olishdan erkin, aniq va ta'sirchan nutq yaratishga o'tish metodik mexanizmlarini tahlil qiling.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ masalalarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tizimini loyihalang.
3	Ona tili darslarida qoida va tushunchalarni o'zlashtirish va yodda saqlashning boshlang'ich bosqichlarini bayon qiling.	Nima uchun faqat qoidalarni yodlatish o'quvchining nutqiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirishga yetarli emasligini izohlang.	Mashqlar orqali til birliklarini mustahkamlash va ulardan nutqda to'g'ri foydalanish metodikasini tushuntiring.	Ona tili darslarida turli nutqiy muhitlarda (og'zaki, yozma, rasmiy, norasmiy) to'g'ri va ta'sirchan so'zlashishni shakllantirish konsepsiyasini yoritib bering.	O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqidagi uslubiy va mantiqiy xatolarni tuzatish va moddiylashtirish darajasini baholash yo'llarini ko'rsating.
3	O'quvchilarning matn yaratish faoliyatida moddiylashtirish darajasining namoyon bo'lishini aytib bering.	Matn ustida ishlash jarayonida lingvistik tahlildan kommunikativ faoliyatga o'tishning pedagogik ahamiyatini mulohaza qiling.	Boshlang'ich sinflarda erkin matn va insho tuzish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish usullarini tushuntiring.	Ona tili ta'limida bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni moddiylashtirishning zamonaviy metodik tendensiyalarini tahlil qiling.	O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, 3-4-sinflar uchun kompleks nutqiy topshiriqlar modelini ishlab chiqing.
4	Ta'lim sharoitida ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlari deganda nimalar tushuniladi? (Tayanch tushuncha: bosqichmalik, aniqdan mavhumga, deduksiya-induksiya)	O'quvchilarning nutqiy amaliyotdan qoidaga va oddiy tahlildan murakkab sintezga borish jarayonini mulohaza qilib bering.	Ona tili ta'limining asosiy prinsiplari (ongli o'zlashtirish, nutqiy faoliyat bilan bog'liqlik, kommunikativ yo'nalganlik, tizimlilik)ni tushuntiring.	Amaliy mashqlarning nazariy bilimlar ustunligi prinsipi hamda uzviylik va uzluksizlik tamoyillarining o'zaro ta'sirini tahlil qiling.	Boshlang'ich sinf darslarida 'ongli o'zlashtirish' prinsipi buzilganda yuzaga keladigan metodik xatolarni tahlil qiling va bartaraf etish strategiyasini tuzing.
4	Ona tilini o'zlashtirishda 'aniqdan mavhumga borish' va 'oddiy tahlildan murakkab sintezga borish' qonuniyatlarini izohlang.	O'quvchida til birliklarini tizimli holda idrok etish va funksional jihatdan farqlash ehtiyojini qanday yuzaga keltirish mumkin?	Ona tili ta'limida 'nutqiy faoliyat bilan bog'liqlik' va 'uzviylik' prinsiplarining dars bosqichlarida aks etishini tushuntiring.	Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida zamonaviy kommunikativ-funksional yondashuv va lingvistik pragmatika konsepsiyasini tahlil qiling.	O'quvchilarning muayyan lingvistik hodisani (masalan, kelishiklar yoki so'z turkumlari) o'zlashtirishdagi qonuniyatlarini tajribada sinash loyihasini taklif eting.
4	Til birliklarini funksional jihatdan farqlash deganda nimani tushunasiz?	Amaliy mashqlarning nazariy bilimlardan ustunligi tamoyilini boshlang'ich sinf darslari misolida mulohaza qiling.	Ona tili darslarida tizimlilik va uzviylik prinsiplariga rioya qilish usullarini bayon eting.	Ta'lim sharoitida ona tilini o'zlashtirishning psixollingvistik va kognitiv-metodik prinsiplarini tahlil qiling.	Darsda amaliy va nazariy mashg'ulotlar nisbatini to'g'ri belgilash bo'yicha metodik tavsiyanoma tuzing va uning samaradorligini asoslang.
5	Lingvistik bilim va tushunchalarni o'zlashtirish jarayonining mohiyati va o'rganish sathlarini ayting. (Tayanch tushuncha: fonetik, leksik, grammatik sathlar)	Nazariy ma'lumotlarni anglash va ularni esda saqlashdan til birliklarini tahlil qilish ko'nikmalariga o'tish bosqichlarini mulohaza qiling.	Mavhum til qonuniyatlarini aniq misollar, sxema va jadvallar asosida tushuntirish metodikasini bayon eting.	Bosqichli mashqlar va tahliliy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarni ketma-ket bajarish orqali bilimlarni mustahkamlash tizimini tahlil qiling.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik tushunchani (masalan, 'ot' yoki 'gap') shakllantirish jarayonining to'liq metodik modelini yarating.
5	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fonetik va leksik tushunchalarni shakllantirish metodikasini tushuntiring.	Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishda o'quvchilar uchraydigan qiyinchiliklar va uning sabablarini mulohaza qiling.	Lingvistik tushunchalarni shakllantirishda ko'rgazmalilik (sxema, jadval, model) va grafik vositalardan foydalanish usullarini izohlang.	Lingvistik tushunchalarni vaqtlar va bosqichlar bo'yicha chuqurlashtirib borish (induktiv va deduktiv yo'nalishlar) konsepsiyasini tahlil qiling.	Grammatik yoki leksik tushunchani o'zlashtirish darajasini aniqlovchi diagnostik testlar va tahliliy topshiriqlar paketini ishlab chiqing.
5	O'quvchilarning til birliklarini tahlil qilish (lingvistik tahlil) ko'nikmalarini baholash mezonlarini ko'rsating.	Mavhum lingvistik tushunchalarni ko'rgazmali va amaliy shaklga keltirishning o'quv samaradorligiga ta'sirini mulohaza qiling.	Tahliliy fikrlashni rivojlantiruvchi va muammoli vaziyatlarni hal etuvchi lingvistik topshiriqlar turlarini tushuntiring.	Boshlang'ich ta'limda lingvistik bilimlarni integratsiyalashgan holda (nutq va matn bilan bog'liq holda) o'rganish konsepsiyasini tahlil qiling.	Boshlang'ich sinf ona tili darsida lingvistik tushunchani shakllantirishga bag'ishlangan 15 minutlik amaliy mashg'ulot ssenariysini va xulosasini tuzing.
6	Ta’lim metodlari tushunchasining mohiyatini ochib bering.	Ta’lim metodlarining tarkibiy qismlarini tavsifla	Evristik va noevristik suhbat metodlarini qiyosiy tahlil qiling.	Ta’lim metodlarini tasniflashning asosiy mezonlarini tahlil qiling.	O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro ta’siri ta’lim metodlarini tasniflash mezoni sifatida qanday namoyon bo‘ladi?
6	Hikoya metodining turlarini izohlang.	Og‘zaki bayon metodlarining turlarini tavsiflang	Muammoli-izlanish metodlarining mohiyatini ochib bering.	Y.K. Babanskiyning ta’lim metodlari tasnifini izohlang.	Didaktik o‘yinlar va amaliy metodlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bering.

6	Ko‘rgazmali metodlarning turlarini izohlang.	Mustaqil ishlash metodlarining mazmuni va turlarini tavsiflang.	Mashq metodining bosqichlarini izohlang.	O‘zaro ta’sir natijasini nazorat etish metodlarini tasniflang.	Ona tilining o‘ziga xos ta’lim metodlarini tavsiflang.
7	Mazmuniga ko‘ra lingvistik mashqlar tasnifini tushuntiring.	Lingvistik mashq va o‘quv topshirig‘i tushunchalarini qiyoslang.	Lingvistik mashqlarning ta’lim jarayonidagi funksiyalarini ochib bering.	Grafik, orfografik, orfoepik, uslubiy, punktuatsion va prosodik mashqlarning o‘zaro aloqadorligini tahlil qiling.	Ona tili darsida muayyan grammatik mavzuni o‘rgatish uchun lingvistik mashqlar tizimini ishlab chiqing. Mashqlarning mazmuni, maqsadi, bajarish usullari va murakkablik darajalarini izchil asoslang.
7	Lingvistik mashqlarning invariant tarkibiy qismlarini tavsiflang.	Fonetik, leksik, morfologik va sintaktik mashqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini misollar bilan tavsiflang.	Evristik, adaptiv, noadaptiv va alternativ shakllangan mashqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiling.	Lingvistik mashqlarni tasniflash mezonlarini tahlil qiling. Mashqning nutq shakli, o‘quvchilar faoliyatining ishtiroki, mazmuni va dars bosqichlariga bog‘liqligi tasniflashda qanday ahamiyat kasb etadi?	Lingvistik mashqlarning invariant tarkibiy qismlari — mazmun, maqsad, funksiya va bajarish usulining o‘zaro bog‘liqligini muayyan mavzu misolida tahlil qiling.
7	Lingvistik mashqlar tushunchasining mohiyatini ochib bering.	Lingvistik mashqlarning to‘g‘ri va qo‘shimcha maqsadlari, yaqin va uzoq maqsadlari o‘rtasidagi farqlarni izohlang.	Lingvistik mashqlarning mazmuni va murakkablik darajasi o‘rtasidagi munosabatni tahlil qiling.	O‘rganilgan bilimlarni o‘xshash va yangi, noo‘xshash sharoitlarda qo‘llashga asoslangan mashqlarni qiyoslang. Ularning o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdagi samaradorligini asoslang.	Muayyan ona tili mavzusi asosida evristik, adaptiv, noadaptiv, alternativ va algoritm shaklidagi mashqlarni ishlab chiqing.
8	Zamonaviy ona tili ta’limining strategik maqsadi nimadan iborat? Ushbu maqsadga erishishda mustaqil ishlarning didaktik ahamiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan izohlang.	Mustaqil ish tushunchasining didaktik mohiyatini ochib bering. Mustaqil ishning deduktiv prinsip, o‘qitish metodi va o‘quvchi shaxsini rivojlantirish vositasi sifatidagi xususiyatlarini qiyosiy tahlil qiling.	Reproduktiv, qisman izlanishli (evristik), ijodiy va tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlarning o‘ziga xos xususiyatlarini taqqoslang.	Ijodiy va tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlarning maqsadi, mazmuni va natijalarini qiyoslang. Ularning o‘quvchilarning nutqiy hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini asoslang.	Reproduktiv mustaqil ishlarning ona tili ta’limidagi o‘rni va vazifalarini izohlang. Grammatik tahlil, imlo mashqlari va test topshiriqlarining o‘quvchilar bilimini mustahkamlashdagi ahamiyatini tahlil qiling.
8	Ona tili darslarida mustaqil ishlarni tashkil etishning yalpi, guruhli va individual shakllarini tavsiflang. Ushbu shakllarning didaktik imkoniyatlari va qo‘llash shartlarini tahlil qiling.	Mustaqil ishlarning tayyorgarlik darajasiga ko‘ra tasnifini izohlang.	Mustaqil ishlarni tashkil etishda o‘quvchilarning yosh, individual xususiyatlari va bilim darajasini hisobga olish nima uchun muhim? L.S. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi bilan bog‘liq holda izohlang.	B. To‘xliyev tomonidan ko‘rsatilgan mustaqil ishlarni tashkil etish bosqichlarini tavsiflang. Tayyorgarlik, amalga oshirish, tahlil va monitoring hamda baholash bosqichlarining vazifalarini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qiling.	O‘qituvchi rahbarligida bajariladigan faoliyatdan o‘quvchining to‘liq mustaqil faoliyatiga o‘tish jarayonini izohlang.
8	Mustaqil ishlarning ta’limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va kommunikativ funksiyalarini sanab bering hamda ularning mazmunini qisqacha izohlang.	Ona tili darslarida mustaqil ishlarning ta’limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va kommunikativ funksiyalarini tavsiflang. Har bir funksiyaning amaliy namunalari bilan izohlang.	O‘qituvchining mustaqil ish jarayonidagi nazorat va amaliy yordam o‘rtasidagi muvozanatini izohlang.	Ona tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlashga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishning pedagogik shartlarini tushuntiring.	O‘qituvchining mustaqil ish jarayonidagi nazorat va amaliy yordam o‘rtasidagi muvozanatini izohlang.
9	Ona tili darslarining tipologik tamoyillari tushunchasini izohlang.	Umumdidaktik tamoyillarning ona tili darslari tipologiyasini shakllantirishdagi ahamiyatini tushuntiring.	Ko‘rgazmalilik tamoyilining ona tili darslaridagi didaktik imkoniyatlarini tavsiflang.	Kommunikativ yo‘naltirilganlik tamoyilining ona tili ta’limidagi mohiyatini ochib bering.	Ona tili darslarini tashkil etishda sheva sharoiti va uning ta’sirini hisobga olish tamoyilini tahlil qiling.
9	Ona tili darslarini tasniflashda didaktik maqsadning o‘rnini ochib bering.	Ona tili darslarida nazariya va amaliyot birligi tamoyilining mohiyatini ochib bering.	Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyilining dars tipini tanlash va ta’lim jarayonini loyihalashdagi ahamiyatini tushuntiring.	Til sathlariaro aloqadorlik tamoyilining nazariy asoslarini tushuntiring. Fonetika, leksika, grammatika va orfografiya materiallarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rgatishning metodik afzalliklarini misollar bilan asoslang.	Tipologik belgilovchi tamoyillarni tavsiflang
9	Ona tili darslarining asosiy tiplarini tavsiflang	Onglilik, faollik va mustaqillik tamoyillarining o‘quvchilarda til hodisalarini chuqur o‘zlashtirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini izohlang.	Kommunikativ yo‘naltirilganlik tamoyilining ona tili ta’limidagi mohiyatini ochib bering.	Til hodisalarini ajratish, farqlash va tasniflashga o‘rgatish tamoyilining mazmunini ochib bering.	Ona tili darslarining turli tiplarida qo‘llaniladigan metodlarni qiyosiy tahlil qiling.
10	Dars tipi tushunchasini izohlang va uning ona tili ta’limidagi ahamiyatini tushuntiring.	Aralash (kombinatsion) darsning maqsadi, mazmuni va asosiy bosqichlarini bayon qiling.	Umumlashtiruvchi darsning maqsadi, vazifalari va boshqa dars tiplaridan farqli jihatlarini bayon qiling.	80 daqiqalik aralash darsning asosiy bosqichlarini va har bir bosqichga ajratiladigan vaqtni tavsiflang.	Ona tili darslarida nutqiy yo‘naltirilganlik tamoyilini amalga oshirish usullarini tushuntiring.
10	Ona tili darslarining asosiy tiplarini sanang va har biriga tavsif bering.	Yangi bilimlarni bayon qilish darsining asosiy maqsadi va tashkil etilish tartibini tushuntiring.	Yangi bilimlarni bayon qilish darsida tayanch bilimlarni faollashtirishning ahamiyatini tushuntiring.	Ona tili darslarida ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar birligini misollar asosida tushuntiring.	Ona tili darslarida interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini bayon qiling.
10	Mustahkamlash va takrorlash darslarining maqsadi hamda o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang.	Nazorat darsining vazifalarini tushuntiring va uning ona tili ta’limidagi asosiy shakllarini sanang.	Mustahkamlash darsida reproduktiv, konstruktiv va ijodiy mashqlardan foydalanish usullarini izohlang.	Ona tili darslariga qo‘yiladigan asosiy metodik talablarni sanang va ularning mazmunini izohlang.	Ona tili darsining tipini tanlash mezonlarini sanang va ularning ahamiyatini tushuntiring.